



IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

“TAFAKKUR VA TALQIN”

MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO'PLAMI
(II QISM)

BUXORO 2022 yil, 23 may

1 / 711





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN

**mavzusida Respublika miqyosidagi
ilmiy-amaliy anjuman to'lamini
(II qism)**

Buxoro 2022-yil, 23-may



Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022

asosiy qismini nikoh va qon-qarindoshlik asosida tashkil topgan oilalar tashkil etadi. Bunday uy xo'jaligi fanda "Oilaviy uy xo'jaligi" deyiladi. Demografiya ana shu oilaviy uy xo'jaligini, aniqrog'i – oilani o'rganadi.

Adabiyotlar:

1. Bo'riyeva M, Tojjeva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent. 2011.
2. Bo'riyeva M. "Demografiya asoslari" (o'quv qo'llanma) Toshkent. 2001.
3. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997.
4. Bo'riyeva M.R. Oila va demografiya asoslari.(ma'ruzalar matni) Toshkent 1999.
5. Mallaboyev T. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Namangan. 2012.
6. Kopilov V.A. Geografiya naseleniya. M. 1999.
7. www.ziyonet.uz
8. www.nuu.uz

**MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR - "JAYRON"
EKOMARKAZI**

Yo.D.Xolov

Buxoro Davlat Universiteti

Nasullayeva N.N.

BuxDU, Geografiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ro'yxatiga kiradigan Jayron ekomarkazining geografik xususiyatlari, undagi muammolar va ularning yechimi borasida takliflar berilgan .

Kalit so'zlar: Jayron ekomarkazi, muhofaza etiladigan tabiiy hudud, Qizil" kitob, jayron, ekoturizm.





Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022

Jayron” ekomarkazi– Buxoro viloyatining janubi-sharqiy qismida, Buxoro shahridan 42 km, Kogon shahridan 15 km masofada Buxoro tumanida joylashgan. Markaz turli xil muhofaza rejimiga ega bo`lgan 2 ta hududga ega:

1- simto`r bilan himoyalangan maydon bo`lib , maydoni 5145 gektar.

2- ochiq hudud 11377 gektardan iborat.

Markazning umumiy maydoni 16522 gektarni tashkil qiladi. Markaz 1977-yilda noyob hayvon turlarini, ayniqsa, jayron turini ko`paytirish va saqlab qolish maqsadida ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish markazi sifatida tashkil qilingan . Pitomnik O`zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mutasi tasarrufida faoliyat yuritadi.

Ekomarkazning asosiy maqsadi biologik xilma-xillikni saqlash, kamyob va yo`qolib borayotgan hayvonlar turlarini ko`paytirish shuningdek, janubi-g`arbiy Qizilqum cho`li landshaftlarini saqlab qolish va mahalliy aholi o`rtasida ekologik ta`lim tizimini shakllantirish.

Ekomarkazning vazifalari: noyob va yo`qolib borayotgan hayvon turlarini saqlab qolish va ularning biologiyasini o`rganish, keyinchalik yovvoyi tabiatdagi sonini tiklash, janubi-g`arbiy Qizilqum cho`li biotsenozlari barqarorligini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ta`lim , ekologik turizmdan iborat.

Ekomarkazning asosiy faoliyati: noyob hayvon turlarini saqlab qolish va ularning biologiyasini o`rganish, hayvonot bog`lari va kolleksiyalari uchun hayvonlarni yetkazib berish, noyob hayvon turlarini tabiiy populyatsiyalarini to`ldirish uchun tabiatga qo`yib yuborish, ilmiy tadqiqotlar, ekoturizm, ekologik ta`lim va talabalar amaliyoti, biotexnik tadbirlar va qo`riqlashni tashkil etish.

Jayron”ekomarkazi noyob hayvonlarni ko`paytirish bo`yicha xalqaro e`tirof etilgan pitomnik hisoblanadi. Hozirgi kunda pitomnik hududida O`zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining “Qizil ro`yxatiga kiritilgan quyidagi noyob hayvonlar ko`paytirilmoqda: jayron (1200





Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022

bosh) , Turkman quloni (175 bosh), prejeval oti (16 bosh) , Buxoro tog' qo'yi (48 bosh) , Buxoro bug'usi (1 bosh) .

Ekomarkaz hududida Qizilqum cho'lining janubi-g'arbiy qismida uchraydigan o'simlik va hayvonot dunyosining ko'p turlarini uchratish mumkin : 270 tur o'simlik turi , 700 turdan ortiq umurtqasizlar, 15 tur baliqlar, amfibiyalarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 18 turi, 250 dan ortiq qush turlari, 34 turdagi sut emizuvchilar. Pitomnikdagi hayvonlarning bir qismini boshqa muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ko'chirish yoki yangi populyatsiyalarni shakllantirish uchun ularni boshqa markazlarga o'tkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga hududga yangi hayvon turlarini olib kelib ko'paytirish ishlari ham amalga oshirilmoqda. Masalan 2022-yilda 2 bosh tuyaqush ko'paytirish uchun olib kelingan.

Jayron" Ekomarkazida ilmiy tadqiqot ishlari u tashkil etilganidan buyon o'tkazilib kelinmoqda. Pitonik yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qiladi:

O'zbekiston Respublikasi (Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti, Fanlar Akademiyasining Samarqand filliali, Veterinariya instituti)

Rossiya (A.V.Seversov nomidagi hayvonlarning evolyutsion morfologiyasi va ekologiyasi instituti, Geografiya instituti, Moskva davlat universiteti, Moskva va Sankt-Peterburg hayvonot bog'lari)

Fransiya (Fanlar Akademiyasi "Shize va Lyarosh" naslchilik markazlari)

AQSH (Kaliforniya universiteti), Germaniya Zoologiya instituti

Markaz ma'muriyati tomonidan chet davlatlar bilan noyob hayvonlarni yetkazib berish bo'yicha shartnomalar ham imzolangan . Masalan Rossiya , Tojikiston , Qozog'iston (20 bosh) . Qirg'iziston (3 yilda 150 bosh)

Markaz hududida ekoturizmni rivojlantirish uchun turistik resuslar va sharoitlar ham yetarli. Bir yilda o'ra hisobda 2000 dan ortiq mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurishadi. 2020-yildan boshlab markazning turistik salohiyatini oshirish , mehmonlarga qulaylik yaratish , jayron bilan bog'liq maxsus suvenirler liniyasi va brend do'konlarni tashkil etish, shu bilan birga pitomnik





Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022

hududida bir necha kuzatuv minorasi va ular bo'yicha maxsus marshrutni yaratish ishlari olib borildi. Hozirgi kunda pitomnik hududini sayohat qilish uchun taklif etiladigan 8-yo'nalish bo'yicha marshrutlar xaritasi tuzilgan, 25 o'rinli zamonaviy mehmonxona qurilishi davom etmoqda. Ekomarkaz saytida 3D-sayohatlarni tashkil etish bu hududga sayyohlarni qiziqishini ortishiga, yurtimizning chekka hududlaridagi o'quvchi yoshlarning tabiatga uning har bir komponentiga qiziqish va mehrning shklanishiga turtki bo'ladi.

Yurtimizda tabiatni muhofaza qilish, noyob turlarini ko'paytirish borasida izchil ishlar davom etayotgan bir paytda qonun buzarlilik holatlari ham uchrab turibdi.. 2016-yildan beri jayronlar simto'r bilan o'ralgan 5140 gektardan tashqariga chiqarilmayabdi. Bunga asosiy sabab brokonerlik faoliyatidir. Brokonerlar o'rtacha 1 oyda 100 mln.so'm miqdorda zarar yetkazmoqda. Bunday holatlarni oldini olish madsadida tez-tez "brokonerlikka qarshi oyliklarni va maxsus reydlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

www.daryo.uz

www.eco.gov.uz

www.uzbekistan.travel.uz

O'ZBEKISTONDAGI PAST TOG'LARNI GEOGRAFIK TADQIQ QILISHNING AMALIY AHAMIYATI

G.S.Halimova

BuxDU, g.f.f.d. (PhD),

Sh.S.Babakulova

BuxDU, Geografiya ixtisosligi magistranti,

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistondagi past tog'larning o'rganilganlik darajasi, ularni geografik tadqiq qilishning amaliy ahamiyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari Qizilqumdagi past tog'larga qisqacha umumgeografik tavsif berilgan.



Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2022

<i>Sh. M. Latipov, S. H. Alimov</i>	<i>Bir umumlashgan Firidriks modelining xos qiymatlari joylashish o'rni haqida.....466</i>
<i>Sh.M.Latipov, S.H.Alimov</i>	<i>Bir umumlashgan Fridriks model operatorining xos qiymati haqida.....468</i>
<i>S.Abduvayitov</i>	<i>Existence of eigenvalues in a system of two particles in an optical lattice.....470</i>
<i>I.D. Bozorov F.M. Sayfullayeva</i>	<i>Panjaradagi bir zarrachali Shryodinger operatorining xos qiymatlari soni haqida.....473</i>
<i>D.Ismoilova</i>	<i>Ikki kanalli molekulyar-rezonans modeli uchun virtual sath tushunchasi.....477</i>
70530402 – Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)	
<i>D. Inomjonova</i>	<i>Demografik jarayonda oilaning ahamiyati, oilaning turlari.....480</i>
<i>Yo.D.Xolov Nasullayeva N.N.</i>	<i>Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar - "jayron" ekomarkazi.....484</i>
<i>G.S.Halimova Sh.S.Babakulova</i>	<i>O'zbekistondagi past tog'larni geografik tadqiq qilishning amaliy ahamiyati.....487</i>
<i>G.S.Halimova, K.Amonova,</i>	<i>Umumgeografik qonuniyatlarning yer tabiatiga ta'siri.....493</i>
<i>X.R.Toshov M.N.Muhammadova</i>	<i>Landshaft xaritalari va ularning ahamiyati.....498</i>
<i>M.S.G'aybullayeva</i>	<i>Zovur tarmoqlaridan foydalanishning gidrologik asoslari.....503</i>
70530101 – Kimyo (fan yo'nalishlar bo'yicha)	
<i>Q.A. Ravshanov M.I. Raxmonov</i>	<i>Gossipol smolasi asosida bitumni modifikatsiyalash.....507</i>
<i>Q.A.Ravshanov, X.X. O'rinov</i>	<i>Aralash tolali matolarga gul bosishda polimer kompozitsiyalar qo'llanilishining amaliy aspektlari.....513</i>
<i>O.U. Nurova, SH.B, Ostonova</i>	<i>Quyushtiruvchi olishda suvda eruvchi polimerlarning konsentratsiyaning ta'siri.....517</i>
<i>A. G. Turdiyeva</i>	<i>Karbomid nitratining sintezi va xarakteristikasi va nitrokarbamid.....521</i>
<i>M.Y.Ergashov, A.T.Jo'rayev</i>	<i>Maclura pomifera o'simligi mevasining kimyoviy tarkibi va biologik faolligi.....524</i>
70510101-Biologiya (fan yo'nalishlar bo'yicha)	
<i>M.S.Xodjiyeva</i>	<i>O'zbekistonda baliqchilikni rivojlantirish biotexnologiyalari.....528</i>
<i>N.Axmedova, Z. Fozilova, M.Muxammedova,</i>	<i>Janubiy-g'arbiy Qizilqum suv havzalarida uchrovchi kam sonli va migrant qush turlarining tarqalish ekologiyasi va muhofazasini tashkil qilish masalalari.....531</i>
III-SHO'BA -FILOLOGIYA	